TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

FILOLOGIYA VA PEDAGOGIKA

2026-yil
13 (32)-son

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNALI

RU

ФИЛОЛОГИЯ И ПЕДАГОГИКА

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
МИНИСТЕРСТВА ДОШКОЛЬНОГО И ШКОЛЬНОГО
ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

PHILOLOGY AND PEDAGOGY

EN

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL OF
THE MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

"Filologiya va pedagogika" ilmiy-metodik jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2024-yil 30-noyabrdagi 364/5-qarori bilan 10.00.00 – Filologiya va 13.00.00 – Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

Botir Tajiboyev. Assotsiativ maydonlarda gender tafovutlarni lingvostatistik baholash 100
Nursulton Shayxislamov. O'zbek va qozoq tillarida affikslarning gender-semantik xususiyatlari 103
Денис Елькин. Текст как вселенная: внутренний мир художественного произведения 105

13.00.00 – PEDAGOGIKA

Azizbek Turdiyev. Xalq og'zaki ijodi janrlarining tasnifi va ta'limda yosh xususiyatlariga ko'ra differensial yondashuv metodikasi 107
Zulfiya Pulatova. Didactic Potential of the HKT–AI Operational Feedback Module in Developing Cadets' Communicative Competence 110
Aziza Musayeva. Rolli o'yinlarda yapon tilida gapirish ko'nikmalarini baholash metodlari va mezonlari 114
Umidjon Soliyev. Ingliz tilida o'qish kompetensiyasini rivojlantirishda zamonaviy ta'lim texnologiyalarining lingvodidaktik imkoniyatlari 117
Rasul Sherov. Universitetning yuqori kurs talabalariga koreys tilidagi lug'at va frazeologik birliklarni o'rgatishda "Wayground" onlayn platformasining o'rni 123
Rashida Insopova. Ona tili darslarida imlo lug'atidan foydalanish orqali o'quvchilarning yozma savodxonligini oshirish 126
Solijon Azizov. Chet tilida yozuv kompetensiyasining lingvodidaktik xususiyatlari 129
Go'zal Boltayeva. O'quvchilarda raqamli madaniyat va axborot xavfsizligiga doir tarbiyaviy kompetensiyalarni rivojlantirishning amaliy-metodik tizimi 135
Marg'uba Ilhomova. Media Texts As a Source of Pragmalinguistic Input 139
Gulnoza Shahriyorova. Grafik organayzerlar va ularning turlari 141
Voxidjon Qobilov. Kasbiy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruvni joriy etish mexanizmlarini xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish 144
Muzifa Madaminova. A Methodology for Developing Creative Competence Among Students of Specialized Schools in English Language Teaching 147
Doston Turdaliyev. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchisining kasbiy-metodik tayyorgarligini xalqarolashtirishning samaradorligi 151
Nigora Saidova. Neyropedagogik texnologiyalar asosida bo'lajak tarbiyachilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi 153
Qunduz Gulmanova. Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish 157
Шахло Джамалдинова. Результаты экспериментального исследования формирования эмоционально-коммуникативной компетентности будущих врачей 161
Gulsanam Suyarova, Gulsevar Usmonova. Language Attitudes Toward English In Higher Education 166
Zulfiya Pulatova. Improving the System for Assessing Cadets' Communicative Competence in Higher Military Education Based on the MCR – Index Approach 166
Mahliyo Xolmurodova. Ta'lim sifatini monitoring qilishda xalqaro tajribalar va milliy amaliyot integratsiyasi 170
Malohat Almardanova. Kichik yoshdagi bolalarda talaffuz ko'nikmalarini shakllantirish muammolari 174

Solijon AZIZOV,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti katta o'qituvchisi,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

CHET TILIDA YOZUV KOMPETENSIYASINING LINGVODIDAKTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada chet tilida yozuv kompetensiyasining nazariy asoslari, uning tarkibiy komponentlari hamda zamonaviy metodik yondashuvlar ilmiy manbalar asosida tahlil qilingan. Yozuv kompetensiyasining lingvistik, diskursiv, sotsiolingvistik va madaniyatlararo jihatlari, shuningdek, yozish texnikasi va yozish ko'nikmalarining o'zaro bog'liqligi yoritilgan. Maqolada yozuv kompetensiyasining tarkibiy tuzilishi, yozish texnikasi va yozish ko'nikmalarining o'zaro bog'liqligi hamda zamonaviy lingvodidaktik yondashuvlar yoritilgan. Tadqiqot natijalari chet tilida yozuv kompetensiyasining nazariy mohiyati va tarkibiy tuzilishini tizimli talqin etishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: yozuv kompetensiyasi, chet tilida yozish, yozma nutq, yozish ko'nikmalari, yozish texnikasi, diskursiv kompetensiya, sotsiolingvistik kompetensiya, madaniyatlararo kompetensiya, mikro va makro ko'nikmalar, ingliz tilini o'qitish.

Annotation. This article analyzes the theoretical foundations of foreign language writing competence, its structural components, and contemporary methodological approaches based on scholarly sources. It examines the linguistic, discourse, sociolinguistic, and intercultural dimensions of writing competence, as well as the interrelationship between writing techniques and writing skills. The article further elucidates the structural organization of writing competence, the correlation between writing techniques and writing skills, and contemporary linguodidactic approaches. The findings contribute to a systematic interpretation of the theoretical essence and structural organization of foreign language writing competence.

Keywords: writing competence, foreign language writing, written communication, writing skills, writing techniques, discourse competence, sociolinguistic competence, intercultural competence, micro- and macro-skills, English language teaching.

Аннотация. В статье на основе научных источников проанализированы теоретические основы иноязычной письменной компетенции, её структурные компоненты и современные методические подходы. Рассмотрены лингвистический, дискурсивный, социолингвистический и межкультурный аспекты письменной компетенции, а также взаимосвязь техники письма и письменных умений. В статье раскрываются структурная организация письменной компетенции, взаимосвязь техники письма и письменных умений, а также современные лингводидактические подходы. Результаты исследования способствуют системному осмыслению теоретической сущности и структурной организации иноязычной письменной компетенции.

Ключевые слова: письменная компетенция, письмо на иностранном языке, письменная речь, навыки письма, техника письма, дискурсивная компетенция, социолингвистическая компетенция, межкультурная компетенция, микро- и макроумения, обучение английскому языку.

Globallashuv sharoitida chet tillarini o'qitish tizimida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish bilan bir qatorda yozuv kompetensiyasini shakllantirish ham ustuvor vazifalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Bugungi kunda yozma muloqot ilmiy, akademik va kasbiy faoliyatning ajralmas tarkibiy qismiga aylanganligi sababli, talabalarning fikrini yozma shaklda aniq, mantiqiy va kommunikativ maqsadga muvofiq ifodalay olish qobiliyatini rivojlantirish zamonaviy ta'limning muhim yo'nalishlaridan hisoblanadi. Ayniqsa, ingliz tilining xalqaro ilm-fan, ta'lim va kasbiy muloqot tili sifatidagi mavqeyi chet tilida yozish ko'nikmalariga bo'lgan ehtiyojni yanada kuchaytirmoqda.

So'nggi yillarda chet tillarini o'qitishda yozma nutqni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar soni ortib borayotgan bo'lsa-da, yozuv kompetensiyasining mazmuni, tarkibiy komponentlari hamda ularni takomillashtirishga oid metodik yondashuvlar yuzasidan yagona ilmiy qarash mavjud emas. Xususan, ayrim tadqiqotlarda yozuv kompetensiyasi lingvistik tayyorgarlik bilan cheklansa, boshqalarida uning diskursiv, pragmatik va madaniyatlararo jihatlari ustuvor o'rin egallaydi. Shu bois chet tilida yozuv kompetensiyasining nazariy asoslari hamda tarkibiy tuzilishini tizimli tahlil qilish, uning asosiy komponentlari va ularning o'zaro bog'liqligini aniqlash zamonaviy lingvodidaktikaning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Umuman olganda, yozuv og'zaki tilga nisbatan ikkilamchi, qo'shimcha aloqa vositasi bo'lsa-da, unga qaraganda ko'p afzalliklarga egadir. Zero, tilning asosiy vazifasi – kishilar o'rtasidagi aloqani ta'minlashdir. Tilning kommunikativ vazifasi yozuvsiz amalga oshishi mumkin emas [1: 467].

M.Tatarinovaning ta'kidlashicha, yozishni o'rganish nafaqat grafikani va imloni, balki eng avvalo yozma nutq faoliyatini o'rganishni anglatadi, ya'ni fikrlarni shakllantirish va ifodalash jarayoni hamda yakuniy natija sifatida yozuvning turli xil kommunikativ nutq janrlari va turlariga oid matnlarni sayqallashdan iboratdir [2]. L.Kaplichning so'zlariga ko'ra esa, yozuv kompetensiyasi – bu yaxlit bir tizim bo'lib, uning tuzilishi bitta hodisani, ya'ni nutq aloqasi jarayonini tavsiflovchi o'zaro bog'liq elementlar bilan ifodalanadi [3]. Binobarin, ayni vaqtda chet tillarni o'qitish muayyan bir yangi o'rganilayotgan tilda yozishni o'rganishga o'qitish va o'quv dasturlarining ta'sirini o'rganish, shuningdek, chet tilida talabalarning yozma nutqini rivojlantirish yo'llari va trayektoriyalarini aniqlashning asosiy konteksti bo'lib qolmoqda [4: 211].

Kelajakdagi kasbiy faoliyati chet tilida muloqot qilish bilan bog'liq bo'lgan pedagog va tilshunos talabalar uchun yozma ravishda fikrlarni to'g'ri va mantiqiy ifodalashni o'rganish muhim. Masalan, G'arb olimlarining yozma nutqni o'qitishda katta tajribaga egaligi sababli ularda samarali (ijodiy) yozish ko'nikma va malakalariga ega bo'lish sifatli ta'lim olishda zaruriy shart sifatida e'tirof etiladi. Masalan, insho yozish xorijdagi har qanday OTMga o'qishga kirishdagi eng asosiy talablardan biri hisoblanadi. Shuning uchun, bu holatda yozma nutqni o'rganish ta'lim vositasi emas, balki ta'lim maqsadi hisoblanadi [5]. O'z o'rnida quyidagi muhim jihatni keltirib o'tishimiz lozim, ya'ni til ta'limida "birinchi (ona) tilda yozish" ("*first language writing*"), "ikkinchi tilda yozish" *("second language writing")* va "chet tilida yozish" *("foreign language writing")* kabi tushunchalar mavjud, ular orasidagi farqlar hamda o'ziga xosliklarni ingliz tili misolida quyidagicha izohlashimiz mumkin:

Birinchi (ona) *tilda yozish* ona tilini va yozish ko'nikmalarini tabiiy ravishda o'zlashtirgan ingliz tilida so'zlashuvchilarga tegishli, ya'ni ular yashayotgan muhit ingliz tili bilan to'laqonli bog'liqdir. Shunga ko'ra, ushbu guruh talabalari uchun badiiy va badiiy bo'lmagan matnlarning keng janrlarini muhokama qilish ularga qiyinchilik tug'dirmaydi.

Ikkinchi tilda yozish tushunchasi esa ingliz tili asosiy til bo'lgan yoki faqat ma'lum jamoa guruhlarining tili bo'lgan

mamlakatlarda yashovchi, ya'ni shu omil tufayli ingliz tilini o'rganishi kerak bo'lgan talabalarga oiddir va buning asosida talabalarga yozish malakalarini o'rgatish maqsadida butun yozuv mashg'ulotlari shakllantiriladi.

Chet tilida yozish bo'lsa ingliz tilida yozishni o'rganishi kerak bo'lgan, ya'ni ingliz tili muntazam so'zlashilmaydigan yoki jamiyat tili sifatida yozilmaydigan mamlakatlarda yashovchi talabalarga tegishli bo'lgan kontekstda qo'llaniladi [6: 24], masalan, O'zbekiston hududida.

Keltirilgan tasnifdan ko'rinib turibdiki, yozuv kompetensiyasining rivojlanishi til muhiti bilan bevosita bog'liq. Birinchi tilda yozish tabiiy til tajribasiga tayansa, ikkinchi va chet tilida yozish lingvistik bilimlar bilan bir qatorda maxsus metodik yondashuvlarni ham talab qiladi. Ayniqsa, ingliz tili chet tili sifatida o'qitiladigan sharoitda yozuv kompetensiyasining rivojlanishi o'quv jarayonining mazmuni va tashkil etilishiga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Chet tili ta'limidagi islohotlar va ilg'or tajribalar asnosida 20-asrning 2-yarmida ingliz tili yozuvini o'rgatishda bir qator o'zgarishlar sodir bo'ldi, ya'ni 1970-yillargacha yozuv mahsulot, keyinchalik esa jarayon va nihoyat, ijtimoiy aloqa vositasi sifatida e'tirof etildi – bunda talabalar turli kontekstda va turli maqsadlar uchun yozuvni o'rgana boshladilar [7: 359]. Xususan, ingliz tilining chet tili sifatidagi muhiti yozuvning takomillashtiriluvchi tabiatiga misol bo'la oladi va undagi talabalarning yozish ko'nikmasiga nafaqat ularning ona tili, balki ular yozishni o'rganuvchi ta'lim mazmuni ham ta'sir ko'rsatadi. Natijada ushbu ijtimoiy va madaniy xarakterga ega bo'lgan kontekst talabalarning yozma nutqni tayyorlash va yaratish usullariga ta'sir qiluvchi lingvistik, matn hamda yozuvga oid bilimlarini (masalan, auditoriyaning qarashlari va yozish maqsadlari kabi) taqdim etishlariga xizmat qiladi [8: 23].

Amerikalik olimlar U.Greyb va R.B.Kaplan o'z ilmiy izlanishlari doirasida yozuv kompetensiyasining dastlabki modelini ishlab chiqishdi va u *lingvistik* (o'rganilayotgan tilning yozma kodi, morfologiyasi, lug'at va sintaksisi haqidagi bilim), *diskursiv* (yozma matnning uyushish vositalari, janr shakllari va strukturaviy tashkil etilishiga oid bilim) hamda *sotsiolingvistik kompetensiya* (yozma nutqdan funksional jihatdan maqbul foydalanish) turlarini o'zida aks ettirdi. Mazkur model ham chet tili, ham ona tilida yozma matn yaratish uchun zarur bo'lgan barcha parametrlarga javob beradi, ya'ni fikrni moddiy ifodalash vositasi sifatida til kodini bilish; yozma xabarni vaziyat, muloqot sohasi talablariga adekvat tarzda kompozitsion-semantik yaxlitlikka (diskurs) ko'ra tashkil etish qobiliyati kabi. Biroq

A.Kobisheva o'z tadqiqotida undagi muhim kamchilik sifatida uning faqat o'rganilayotgan muhitga to'g'ridan to'g'ri singib ketishi va haqiqiy madaniy sharoitda esa faqatgina yozuv kompetensiyasini shakllantirish shartlarinigina qondira olishida deb ko'rsatdi. Natijada ayni modelga madaniyatlararo komponentni qo'shishni, ya'ni shaxsning nafaqat yozma matn orqali chet tilida muloqot qila olish, balki samarali madaniyatlararo faoliyat olib bora olish qobiliyatini muvaffaqiyatli shakllantirishni ta'minlashni o'zida aks ettiruvchi yangi bir modelni taklif qildi. Xususan, u madaniyatlararo yozuv kompetensiyasi modeli deb nomlanib, undan *strategik*, *lingvistik*, *diskursiv*, *sotsiolingvistik* va *mafkuraviy kompetensiya* turlari o'rin oldi [9: 59–60]. Turli olimlar tomonidan ilgari surilgan ilmiy qarashlarni umumlashtirish asosida chet tilida yozuv kompetensiyasining mualliflik konseptual modeli ishlab chiqildi (Quyidagi rasmga qarang):



Chet tilida yozuv kompetensiyasining konseptual modeli (muallif ishlanmasi)

Mazkur ilmiy qarashlar yozuv kompetensiyasining ko'p komponentli hodisa ekanligini ko'rsatadi. Turli tadqiqotchilar uning tarkibiy qismlarini turlicha tasniflasalarda, ularning barchasi lingvistik bilimlar, diskursni tashkil etish hamda kommunikativ vaziyatni hisobga olish yozuv kompetensiyasining ajralmas tarkibiy qismlari ekanligini e'tirof etadilar. Demak, yozuv kompetensiyasining mazmunini anglash uning tarkibiy komponentlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni hisobga olishni talab etadi.

S.Musulbesning qayd etishicha, talabalarning yozuv kompetensiyasini takomillashtirish modeli umuman boshqa turdagi kompetensiyalar bilan o'zaro integratsiyani ilgari suradi. Aniqrog'i, u yozma muloqot sohasida argumentativ nutqni o'rgatish bilan bog'liq holda madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya tarkibini aniqlashda yuzaga chiquvchi kompetensiyalar nomenklaturasi, ya'ni *lingvistik*, *sotsiolingvistik*, *ijtimoiy-madaniy* va *argumentativ-diskursiv komponent* turlarini ham o'zida mujassamlashtirishi lozim [10: 117].

Ingliz tilida chet tili sifatida yozish ko'nikmasining retrospektiv rivojlanish bosqichlariga nazar tashlasak, 1980-va 1990-yillarda, Shimoliy Amerika, Buyuk Britaniya, Avstraliya va Yangi Zelandiyadagi ingliz tilidagi universitetlarga xalqaro abituriyentlar oqimi ortib borayotganligi sababli ingliz tilini bilish darajasini tekshirish uchun mo'ljallangan testlarga (ya'ni ingliz tilini chet tili sifatida test qilishga asoslangan TOEFL, Michigan, IELTS va turli Kembrij imtihonlari) yozish komponentlari qo'shila boshlandi. Bu testlar o'qish, tinglab tushunish, shuningdek, grammatika va lug'at bilimlarini baholashning mavjud tizimlaridan tashqari murakkab yaxlit reyting sxemalari asosida kengaytirilgan kompozitsiyalarni yozishni ham o'z ichiga qamrab oldi.

1990-yillarga kelib ingliz tilida samarali yozish – aynan har qanday tilda yozish va umuman chet tilini bilish – lingvistik, kognitiv, ritorik va ijtimoiy konstruksiyalarning bir-birini to'ldiruvchi savodxonlik jarayonlarida yuqori mahorat darajalarini egallashni o'z tarkibiga oldi. 2000-yillarda yozish chet tilini o'rgatish, o'rganish va baholash uchun to'rtta til "ko'nikmalari"dan biriga aylandi, lekin hozirda uning ko'lami, mazmuni va ahamiyati sezilarli darajada kengaydi. Oddiy qilib aytganda, chet tilida, xususan, ingliz tilida yozishni o'rganish 30 yil oldingiga qaraganda akademik ta'lim, ish va professional muloqot uchun yanada muhimroq va dolzarbroq mavqega ega bo'ldi [11: 216–217].

Chet til o'qitish metodikasida yozuvga oid ikki tushuncha o'zaro ajralib turadi, ya'ni *yozish texnikasi* va *yozish ko'nikmasi*. Jumladan, yozish texnikalari butun yozuv mahorati asosida yotadi va o'rganilayotgan tilda yozishni texnik jihatdan mumkin qiladi. Misol uchun, yozish grafik, talaffuz, lug'at, grammatika/sintaksis, punktuatsiya va stilistik kabi asosiy texnikalardan iborat. Agar texnikalar ma'lum bir nutq jamoasida mavjud bo'lgan lingvistik, ijtimoiy va madaniy me'yorlar nuqtayi nazaridan yozishni texnik jihatdan amalga oshiruvchi va moslashtiruvchi vosita bo'lsa, yozish ko'nikmalari yozuvchiga o'rganilayotgan til madaniyati kontekstida yozma shaklda muloqot qilish jarayonida ko'zlagan kommunikativ maqsadlariga erishishga imkoniyat yaratuvchi vosita hisoblanadi.

O'z navbatida, ko'nikmalarning ikki asosiy turi xususida mazkur sohadagi ilmiy adabiyotlarda shunday so'z yuritilgan: (1) o'rganilayotgan tilning nutq jamoasiga maqbul tarzda muallifning o'z fikrlarini yozma shaklda ifodalash ko'nikmalari; (2) yozma nutq janrlari bo'yicha yaratilgan matnlarni formatlash, ya'ni o'rganilayotgan tilning yozma nutq qonun-qoidalariga moslashtirish ko'nikmalari [12]. Shuningdek, X.D.Braun va X.Li ham o'z ilmiy izlanishlarining natijalariga ko'ra yozma nutq janrlarini yaratishda o'zlashtirishi lozim bo'lgan ko'nikmalarni 2 asosiy guruhga ajratishni taklif qilishdi:

– *Mikro ko'nikmalar*: (1) ingliz tilining grafema va orfografik modellarini yaratish; (2) maqsadga mos keladigan samarali tezlikda yozish; (3) muvofiq shakldagi so'zlar guruhini yarata olish va tegishli so'z tartibi qoliplaridan foydalanish; (4) muvofiq shakldagi grammatik tizimlar (masalan, zamon, kelishik, ko'plik), qoliplar va qoidalardan foydalanish; (5) ma'lum bir ma'noni turli grammatik shakllarda ifodalash.

– *Makro ko'nikmalar*: 1) yozma nutqda bog'lovchi vositalardan foydalanish; 2) yozma nutqning ritorik shakllari va tartib-qoidalaridan foydalanish; 3) yozma matnlarning kommunikativ funksiyalarini shakl va maqsadga muvofiq to'g'ri bajarish; 4) hodisalar o'rtasidagi bog'lanish va aloqadorliklarni ifodalash hamda asosiy g'oya, qo'llab-quvvatlovchi g'oya, yangi ma'lumot, berilgan ma'lumot, umumlashtirish va misol keltirish kabi munosabatlarni xabar qilish; 5) yozuv jarayonida to'g'ridan to'g'ri va yashirin ma'nolarni farqlash; 6) yozma matn kontekstida madaniyatga xos havolalarni to'g'ri ifodalash; 7) yozma nutqda o'quvchilar talqinini to'g'ri baholash, oldindan yozish texnikasidan foydalanish, birinchi qoralamalarda ravon yozish, parafraza va sinonimlardan foydalanish, tengdoshlar va professor-o'qituvchilarning fikr-mulohazalarini olish, qayta ko'rib chiqish va tahrir qilishda fikr-mulohazalardan foydalanish kabi yozuv strategiyalarining to'plamini ishlab chiqish va amalda qo'llash [13: 437].

Mikro va makro ko'nikmalar yozuv kompetensiyasining mazmunini ifodalovchi o'zaro bog'liq elementlar hisoblanadi. Mikro ko'nikmalar til birliklaridan to'g'ri foydalanishni ta'minlasa, makro ko'nikmalar matnning kompozitsion yaxlitligi, mantiqiyligi va kommunikativ samaradorligini belgilaydi. Shu sababli yozuv kompetensiyasining tarkibini tavsiflashda mazkur ikki guruh ko'nikmalar bir-birini to'ldiruvchi komponentlar sifatida qaraladi.

Rus olimi S.Bukovskiy esa 1) matnning turli janrlarini yaratish; 2) muallif o'z nutqiy faoliyatini tashkil etish maqsadida o'quvga oid yozishmalarni olib borish;(3) yozma matnda argumentlar va emotsional-baholovchi lingvistik vositalardan foydalangan holda mulohazalarni ifodalash, voqea va faktlarni sharhlash; 4) o'qilgan/tinglangan matnning asosiy g'oyasini shakllantirish; 5) ikkinchi darajali matnlarni (referat, annotatsiya, taqriz, rezyume) yaratish va 6) har qanday pozitsiyani isbotlash, dalillarni jalb qilgan holda faktlarni baholashni yozish ko'nikmalari sifatida keltirdi [14: 232].

Arab olimi A.S. Al'-Durra ham yozuv – bu bir vaqtning o'zida ham fikrlar, ham usullarni birlashtirgan spontan jarayon, deb hisoblaydi. Aniqrog'i, yozuvda talabalardan o'z fikrlarini to'g'ri tashkil etish g'oyalarni bir jumladan ikkinchisiga va bir xatboshidan ikkinchisiga mantiqiy hamda izchil yo'sinda olib borishni talab qiladi. Demak, bu yozuvda ma'lum bir tartibda joylashtirilgan va ma'lum usullar bilan o'zaro bog'langan jumlalar ketma-ketligini hosil qila olish mahorati hisoblanadi. Qisqachasi, yozuv bir-biridan uzilib qolgan g'oyalarni mohirona boshqarish, tizimlashtirish va ularni uyushgan bir butun birlikka yetkaza olish bosqichlaridan iborat bo'lgan chiziqli jarayondir [15: 329].

Professor R.Milrudning fikriga ko'ra, yozma nutq ham ona tili, ham chet tilida murakkab nutq mahorati bo'lib, unga ega bo'lish dastlab o'z-o'zidan paydo bo'luvchi og'zaki nutqdan farqli o'laroq, faqat maqsadli o'rganish jarayonida erishiladi [16]. Shunga ko'ra, T.Ovchinnikova yozma nutqni turli darajalarda o'rgatish kerakligini ilgari surdi, ya'ni a) nutq odobi; b) rasmiyatchilikning tegishli darajasiga rioya

qilish (norasmiylik); d) gapning kommunikativ funksiyalarini ifodalash uchun tilning muayyan vositalarini tanlash; e) ona va chet tillarida nutqiy xulq-atvorning ijtimoiy-madaniy stereotiplarini chet tilida yozma muloqot jarayonining muhim jihatlari sifatida qabul qilish va buning talabalar nutqiy kompetensiyasining to'liq tarkibiy qismiga aylantirish [17: 8].

Psixolog olima I.Zimnyaya og'zaki nutq kabi yozma nutqni ham uch darajali tuzilish bilan tavsiflash mumkinligini ta'kidladi: motivatsion-rag'batlantiruvchi, analitik-sintetik va ijro etuvchi darajalar yoki bosqichlar [18]. Binobarin, N.Galskova va N.Gez nutqning ayni shaklida muallif o'z ichki nutq shaklida amalga oshirilgan fikrni ifodalashda lisoniy vositalardan foydalanishga o'tishini hamda ushbu jarayonda leksik birliklarni tanlash, ularni grammatik jihatdan tuzilgan gaplar, paragraflar va matnlarda qo'llash esa tanlash, qiyoslash, birlashtirish va nazorat qilish bosqichlari yordamida amalga oshirilishini, natijada ushbu ketma-ket nutqiy harakatlar zanjiri muallifning kommunikativ niyatiga muvofiq rivojlanib borishini izohlab berishdi [19: 247].

Kompetensiya darajasida yozish ko'nikmalarini o'qitishda professor R.Milrud hal qilinishi lozim bo'lgan quyidagi vazifalarni ko'rsatdi: 1) yozma til tarkibini o'zlashtirish uchun shart-sharoit yaratish; 2) talabalarning chet tillaridagi mahorat darajasiga muvofiq ulardan amaliyot, bilim va ijodkorlik usuli sifatida foydalanish qobiliyatini shakllantirib borish [16: 5].

Ona tili, ikkinchi va chet tilida yozish bo'yicha olib borilgan ishlardan olingan eng muhim xulosamiz shuki, samarali yozish qobiliyati nafaqat lingvistik xususiyatlarni bilishni, balki bir qator fikrlash amallarini faollashtirishni ham o'z ichiga oladi va bu *yozish jarayoni* deb ataladi. Ushbu amallar orasidan quyidagilar ko'pincha ajralib turadi: topshiriqni konsepsiyalash, aqliy hujum yoki g'oyalarni yaratish, rejalashtirish, shakllantirish (fikr va g'oyalarni til orqali ifodalash), muammolarni hal qilish, baholash, qayta qurish va ko'rib chiqish, tahrirlash, tabiatan rekursiv, dinamik va vaqtinchalik xarakterga ega bo'lgan metakognitiv strategiyalardan foydalanish [20: 23].

Umuman olganda, ingliz tilida yozish talab qilinadigan barcha akademik vaziyatlarda talabalar o'z fikrlarini aniq va tashkiliy tarzda bayon eta olishlari lozim. Bunda esa talabalarning a) bitta asosiy g'oya va uni qo'llab-quvvatlovchi bir nechta asosiy fikrlarni aniqlab olish; b) inshoni qanday tashkil qilishni rejalashtirish (masalan, reja *(outline)* asosida); d) sabablar, misollar va tafsilotlardan foydalangan holda inshoni puxta ishlab chiqish; e) ma'lumotlarni uyushgan holda taqdim etish; f) g'oyalarni bog'lash va o'quvchiga g'oyalar oqimini tushunishga yordam berish uchun samarali bog'lovchi so'zlardan (o'tish iboralaridan *(transitional phrases))* foydalanish; g) fikrlarni samarali ifodalash uchun grammatik diapazon va lug'atdan *(vocabulary)* foydalanish; h) grammatika va lug'atdan to'g'ri foydalanish; idiomatik iboralarni to'g'ri qo'llash; (i) imlo, tinish belgilari va tartib qoidalariga rioya qilish [21: 19] malakalarini tizimli ravishda o'rganib borishlari maqsadga muvofiqdir.

D.Nunan ta'kidlaganidek, yozuv – bu g'oyalar hamda ularni qanday qilib yaxshi yozuvda (matn) ifodalash haqida fikr yuritish va fikrlarni aniq bayonotlar va paragraflar bilan tartibga solish jarayoni hisoblanadi [22: 88]. Jumladan, F.Krem va M.Lining so'zlariga ko'ra esa yozuv so'zlardan iborat bo'lib, bu so'zlar o'ziga xos shakllarga qo'shilib, jumlalar hosil qiladi, so'ngra ular paragraflarga birlashtiriladi [23: 5]. Zero, Y.V.Kolbishevaning fikriga qo'shilgan holda aytishimiz mumkinki, yozuv jarayonida fikrni tuzish va mantiqiy qurish, asosiy va ikkinchi darajali ma'lumotlarni aniqlash, tezislarni ochiqlash, dalillar va xulosalarni shakllantirish uchun javobgar bo'lgan aqliy jarayonlar faollashadi.

J.B. Xiton yozuv malakalari murakkab va ba'zan ularni o'rgatish qiyin bo'lib, talabalar mazkur masalada nafaqat grammatika va ritorikani, balki konseptual va to'g'ri qaror qabul qila olish elementlarini ham o'zlashtirishlari lozim, deb hisoblaydi: 1) *tildan foydalanish ko'nikmalari* – to'g'ri va mos bo'lgan jumlalarni yoza olish; 2) *mexanika ko'nikmalari* – yozma tilning qonun-qoidalariga amal qilgan holda ushbu jumlalardan to'g'ri foydalana olish, misol uchun, punktuatsiya va talaffuzga oid qoidalar; 3) *mazmunni qayta ishlash* – matnga taalluqli bo'lmagan ma'lumotlarni chiqarib tashlagan holda ijodiy fikrlash va farazlarni rivojlantirish; 4) *stilistik ko'nikmalar* – jumlalar va paragraflarni mohirona boshqarish va tildan samarali foydalana olish; 5) *to'g'ri qaror qabul qila olish ko'nikmalari* – ma'lum bir auditoriyani ko'zlagan holda muayyan bir maqsadga muvofiq yoza olish va tegishli ma'lumotlarni tanlash, tashkil etish va tartibga solish [25: 135].

Yozuv madaniy xilma-xillik dunyosi kontekstida madaniy o'ziga xoslikni aniqlash, ifodalash va muhokama qilish vositasidir va yozma til ko'plab guruhlar tomonidan madaniy farqlanishni aks ettiruvchi yoki saqlovchi vosita sifatida talqin etiladi [26: 122–123]. Vaholanki, yozuvni samarali o'qitishda o'qituvchi dars mashg'ulotlarida ishtirok etuvchi ko'nikmalar va jarayonlarni aniq bilishi kerak. Bu nuqtayi nazar ayni kompetensiyaga tug'ma qobiliyat yoki beixtiyor bajariladigan odat sifatida emas, balki tartib-qoida va mehnat bilan erishilishi kerak bo'lgan kasb, malaka sifatida qarash kerakligini bevosita tasdiqlaydi [27: 181].

J.Xarmer ham, o'z navbatida, yozish amaliyoti mashg'ulotlari davomida o'qituvchilar tomonidan bajarilishi lozim bo'lgan bir qator muhim rollarni ko'rsatib o'tdi: 1) talabalarni mavzuga mos keladigan g'oyalar va fikrlarni yaratishga chorlashi – *motivator* roli; 2) o'z talabalariga o'rganilayotgan mavzu bo'yicha kerakli ma'lumot va resurslarni taqdim etishi, shu jumladan, samarali va puxta o'ylangan tarzdagi maslahat va takliflarni taqdim etishi – *manba yetkazuvchi* roli; 3) o'z ishining ijobiy va salbiy tomonlariga talabalar e'tiborini jalb qilish uchun yozma topshiriqlar yuzasidan yetarlicha qayta aloqa bildira olishi – *qayta aloqa bilan ta'minlovchi* roli [28: 369].

Aslini olganda, yozuv kompetensiyasi – bu aniq bir maqsadni amalga oshirish doirasida ma'lum bir samarali yozma asar yaratish mahorati bo'lib [27: 181], uni o'qish kabi akademik muvaffaqiyatga erishishda muhim omil sifatida e'tirof etishimiz mumkin. So'nggi 20 yil davomida olib borilgan tadqiqotlarda aniq ta'kidlaganidek, yozuv shunchaki yozma nutq masalasi emas. Chunki, og'zaki va yozma nutq uslublaridagi o'zgarishlarga ko'ra, ularning har ikkisi o'zidagi axborot oqimi, ritorik va sintaktik xususiyatlar, shuningdek, grammatik va leksik tizimlardan foydalanishning turli usullariga ega ekanligi ko'rsatilgan [29: 8].

Jumladan, ingliz olimi J.Xarmer o'zining "Yozuvni qanday o'qitish kerak" ("*How to Teach Writing*") nomli kitobida o'qituvchining yozish amaliyoti bo'yicha dars mashg'ulotlarida talabalarning 1) yozish sabablarini tushuna olish; 2) yozish uchun bir talay imkoniyatlarni taqdim eta olish hamda 3) yozma nutqlariga javoban foydali va mazmunli ko'rinishdagi qayta aloqa (*feedback*) bildira olishga e'tibor qaratishi lozimligini ta'kidlaydi [30: 109].

Ma'lumki, chet tili ta'limida yozuvni o'rgatishda bir qator yondashuvlar tatbiq etilib kelinmoqda va ular orasida quyidagi ikki asosiy tur nisbatan ommabop va samarali natijalarga erishishga zamin yaratdi:

– *Jarayonga asoslangan yondashuv* (Yaxshi matnlar talabalar tomonidan qanday yaratiladi?) – asosiy e'tibor yozish jarayoniga qaratiladi va talabalarga bilim va tafakkur vositasida matnni bosqichma-bosqich tarzda yaratishga imkon beradi. Jumladan, ayni yondashuvda yozuv dinamik, o'zgaruvchan va takrorlanuvchi bosqichlardan iborat jarayon sifatida ko'riladi, bunda ma'no hosil qilish orqali bilim matnga aylantiriladi [31: 124].

Amerikalik nazariyotchi olimlar L.Flauer va J.Xeysning fikrlariga ko'ra, ma'lum bir yozma nutq janrini ushbu yondashuv yordamida yaratishning quyidagi bosqichlari mavjud: 1) maqsadlarni belgilab olish; 2) g'oyalarni yaratish; 3) axborotni ifodalash; 4) maqbul tilni tanlash (usul va uslub); 5) qoralama nusxani tayyorlash; (6) o'qib chiqish va qaytadan ko'rib chiqish; 7) tekshirib tuzatish va tahrirlash [32]. Ayni yondashuvning asosiy kamchiliklaridan biri unda har doim ham yozma mahsulot sifatiga yetarlicha e'tibor berilmaganligi bo'ldi, chunki u yozma nutqning "ravonlik jihatini aniqlikdan ustunroq qaralishiga" sababchi bo'ldi va yozuv jarayoni hamda yakunda yaratiladigan mahsulot (yozma nutq janri) o'rtasida "noto'g'ri dixotomiya" yaratdi [33: 29].

– *Janr/Matnga asoslangan yondashuv* (Qanday vositalar yaxshi matn yaratishga yordam beradi?) – yozma nutq janri diqqat markazida bo'ladi va uni yaratishdan ko'zlangan maqsad ham hisobga olinadi. Demak, namunaviy matnlarning uslubi va mazmunini hamda ularning sotsiolingvistik vaziyatini (kontekst) tahlil qilish va ularga taqlid qilgan holda ma'lum bir turdagi yozma nutq matnini yaratish ushbu yondashuv turining asosini tashkil etadi [31: 124]. Shuningdek, yaratilayotgan yozma nutq janrlarining sxematik tuzilishini bilish talabalarga butun bir matn bo'ylab argumentlar oqimini boshqarishga yordam beradi [29: 9]. Shu sababli amalda namuna sifatida olingan matnlar o'rganilayotgan yozma nutq turiga xos bo'lgan tarkibiy va lingvistik xususiyatlarni o'zida aks ettirishi lozim. Natijada talabalar muayyan muloqot turlariga doir til, matn tuzilishi va nutq (diskurs) amaliyotini o'zlashtira oladilar [27: 180].

Ayni yondashuv, o'z navbatida, talabalarga quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi: 1) yozuvda o'zlashtirishlari lozim bo'lgan zaruriy jihatlarni aniqlab olish; 2) matn tuzilmasidan xabardorlikni rivojlantirish; 3) yozma nutqni bayon etishning o'ziga xos jihatlaridan foydalanishni rivojlantirishda ko'mak berish; 4) samarali matn mezonlarini qo'llashga imkoniyat yaratish [31: 125]. Shu bilan birga, K.Xaylend mazkur yondashuvning quyidagi foydali jihatlarini qayd etdi: a) ko'rsatmalarning juda aniq bo'lishi (yakuniy mahsulotga asosiy e'tibor qaratilganligi hisobiga); b) janrga e'tibor til, matn tuzilishi va kommunikativ vaziyatlarga bir xilda diqqatni jamlashda zarur bo'lgan shart-sharoitni yarata olishi; d) talabalarning yozma nutq janrlarini yozishdagi ehtiyojlarini aniqlashga yordam berishi; e) ayni jabhaga oid ko'nikmalarga kuchli ta'sir ko'rsatish xususiyatiga ega ekanligi [34].

Ingliz tilini chet tili sifatida o'rganish darslarini talabalar hayoti bilan bog'lash, ular uchun mazmunli va tegishli yozish imkoniyatlarini taqdim etish zarurati [35: 152] yozuv kompetensiyasini takomillashtirish jarayonlarini samarali tashkil etishda muhimdir. Xususan, L.P.Solonsovaning ta'kidlashicha, hozirda yozuvga, chet tili o'rganuvchilarining o'z fikrini yozma shaklda ifodalashga o'rgatishga bo'lgan munosabat tamomila o'zgardi. Ta'lim maqsadi sifatida yozuv barcha turdagi ta'lim muassasalari uchun dasturlarda va chet tilini o'rganishning barcha bosqichlarida mavjud.

Bugungi kunda biz yozish ko'nikmalari keng talabga aylanganligi va zamonaviy dunyoda eng professional ahamiyatga ega bo'lgan maqomni olganligiga doimo duch kelmoqdamiz, chunki professional aloqalar uchun asosiy vositaga aylangan kompyuter aloqasi yozma muloqotni birinchi o'ringa chiqardi [36: 213]. Vaholanki, yozuvning amaldagi roli va o'rni chet tili o'qitishning o'ziga xos shartlari va maqsadlari bilan belgilanadi [37: 202]. Jumladan, R.Milrud ham yozuvning mahsuldor (produktiv) tomoni chet tili darslarida hanuz yetarlicha o'rganilmadi, deb hisoblaydi [16: 5].

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, yozuv insoniyat idrokining tadrijiy rivojlanish bosqichlarini o'zida aks ettiruvchi muhim manba. Yozuv kompetensiyasi, shu jumladan, har qanday tilda egallanishi murakkab bo'lgan nutq faoliyatining produktiv turi hisoblanadi va uni talab darajasida o'zlashtirish talabalardan uzoq vaqtni talab qiladi. Yuqorida keltirilgan yozuv kompetensiyasi modellari, uning ko'nikma va malaka darajasida egallanishi lozim bo'lgan aspektlari, o'qituvchi tomonidan bu borada amalga oshiriluvchi chora-tadbirlar hamda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlar ham buni tasdiqlaydi, shuning uchun oliy ta'limda bo'lajak ingliz tili mutaxassislari sifatida talabalarning mazkur nutq faoliyati turini takomillashtirish amalda uning bugungi ta'lim maqsadi shaklidagi maqomi hamda raqamli texnologiyalar bilan o'zaro ajralmas integratsiyalashuviga bevosita bog'liqdir.

Demak, chet tilida yozuv kompetensiyasining nazariy asoslari va tarkibiy tuzilishini tizimli o'rganish uni samarali shakllantirish hamda takomillashtirishning ilmiy-metodik asoslarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuv oliy ta'lim tizimida bo'lajak ingliz tili mutaxassislarining yozuv kompetensiyasini takomillashtirishga xizmat qiluvchi metodik yechimlarni ishlab chiqish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi: gidrofiliya – zebralar. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2002.
2. Татаринова М.А. Теоретические основы создания и использования дистанционного курса обучения иноязычной письменной речи для студентов 2–3 курсов лингвистического вуза (на материале английского языка): автореф. дисс. … канд. пед. наук. М.: 2005.
3. Каплич Л.В. Начало обучения продуктивной письменной речи в лингвистическом вузе: автореф. дисс. … канд. пед. наук. М.:1996.
4. Cumming A. The contribution of studies of foreign language writing to research, theories and policies // R.Manchón (Ed.), Writing in foreign language contexts: Learning, teaching, and research. – Bristol, UK: Multilingual Matters, 2009. – P. 209–231.
5. Кудряшова О.В. Компетентностный подход к обучению письменной речи как проблема теории и практики обучения иностранным языкам // Вестник Южно-Уральского государственного университета, 2007, № 1(73). – С. 36–41.
6. Grabe W., Kaplan R.B. Theory and practice of writing. – New York: Longman, 1996.
7. Khwailch F. The effect of wh-questions on the quantity and quality of low-level achieving students' paragraph writing at the university level // Educational Sciences, 2011, № 38(1). – P. 359–371.
8. Carol R., Hiroe K. Situated writing practices in foreign language settings: The role of previous experience and instruction // R.Manchón (Ed.), Writing in foreign language contexts: Learning, teaching, and research. – Bristol, UK: Multilingual Matters, 2009. – P. 23–48.
9. Кобышева А.С. Методика обучения письменной речи как компоненту межкультурной компетенции лингвиста-преподавателя: дисс. … канд. пед. наук. Ставрополь, 2009.

10. Мусульбес С.Н. Обучение аргументирующему дискурсу в сфере письменного общения: дисс. ... канд. пед. наук. М., 2005.
11. Tarnopolsky O. Teaching English writing in Ukraine: Principles and practices // T.Cimasko, M.Reichelt (Eds.), Foreign language writing instruction: Principles and practices. – South Carolina: Parlor Press, 2011. – P. 183–200.
12. Brown H.D., Lee H. Teaching by principles: An interactive approach to language pedagogy (4th ed.). – New York: Longman, 2015.
13. Буковский С.Л., Щукин А.Н. История методов обучения иностранным языкам в схемах и таблицах: Иллюстративно-графический курс: учебное пособие. М.: Флинта, 2020.
14. Aldera A. Cohesion in written discourse: A case study of Arab EFL students // Arab World English Journal, 2016, №7(2). – P. 328–341.
15. Мильруд Р.П. Методика обучения иноязычной письменной речи // Иностранные языки в школе, 1997, № 2.
16. Овчинникова Т.Е. Практика обучения англоязычной письменной речи студентов университета. Оренбург: Бибком, 2009.
17. Зимняя И.А. Психология обучения иностранным языкам в школе. М.: Просвещение, 1991.
18. Гальскова Н.Д., Гез Н.И. Теория обучения иностранным языкам: Лингводидактика и методика. М.: Издательский центр «Академия», 2006.
19. Ruiz-Funes M. Reading to write in a foreign language: Cognition and task representation // T.Cimasko, M.Reichelt (Eds.), Foreign language writing instruction: Principles and practices. – South Carolina: Parlor Press, 2011. – P. 22–43.
20. The official guide to the TOEFL iBT® Test (6th ed.). – New York: McGraw-Hill, 2021.
21. Nunan D. Practical English language teaching. – Singapore: McGraw-Hill, 2003.
22. Creme P., Lea M.R. Writing at university (2nd ed.). – Maidenhead, UK: Open University Press, 2003.
23. Колбышева Ю.В. Некоторые особенности обучения письму на иностранном языке студентов неязыковых специальностей // Вопросы теории и практики, 2014, № 1-1(31).
24. Heaton J.B. Writing English language tests. – New York: Longman Inc., 1989.
25. Malcolm I.G. Writing as an intercultural process // C.N. Candlin, K.Hyland (Eds.), Writing: texts, processes and practices. – London: Longman, 1999. – P. 121–141.
26. Cheung Y.L. Teaching writing // W.Renandya, H.Widodo (Eds.), English language teaching today. – Cham, Switzerland: Springer, 2016. – P. 179–194.
27. Harmer J. The practice of English language teaching (5th ed.). – New York: Pearson Education, 2015.
28. Burns A., Siegel J. Teaching the four language skills: Themes and issues // A.Burns, J.Siegel (Eds.), International perspectives on teaching the four skills in ELT. – Cham, Switzerland: Palgrave Macmillan, 2018. – P. 1–17.
29. Harmer J. How to teach writing. – London: Longman, 2004.
30. Kirchhoff P. Productive competences – speaking, writing, mediating // C.Surkamp, B.Viebrock (Eds.), Teaching English as a foreign language. – Stuttgart, Germany: J.B. Metzler, 2018. – P. 109–132.
31. Flower L., Hayes J. The cognitive process theory of writing // College Composition and Communication, 1981, № 32(4). – pp. 365–387.
32. Reid J. Writing // R.Carter, D.Nunan (Eds.), The Cambridge guide to teaching English to speakers of other languages. – New York: Cambridge University Press, 2001. – P. 28–33.
33. Hyland K. Teaching and researching writing (4th ed.). – New York: Routledge, 2021.
34. Hyland K. Genre pedagogy: Language, literacy and L2 writing instruction // Journal of Second Language Writing, 2007, № 16(3). – P. 148–164. doi:10.1016/j.jslw.2007.07.005
35. Солонцова Л.П. Методика обучения иностранным языкам. М: Издательство ВЛАДОС, 2018.
36. Колесников А.А. Как обучать иностранному языку студентов педагогического вуза: актуальные проблемы и возможные решения // Вестник Томского государственного университета, 2021, № 462.